

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

Samarqand qishloq xo'jalik instituti

«O'simlikshunoslik» kafedrası

**Yem-xashak ekinlarini yetishtirish texnologiyasi
fanidan laboratoriya ishi**

№6

Poliz ekinlari.

Bajardi: 309-guruh talabasi Nurpayziyeva F.
Tekshirdi: Mavlonov B.

Poliz ekinlari

Ishning maqsadi: Talabalarga poliz ekinlaridan chorva mollari uchun yem-xashak sifatida foydalanish usullarini, xashaki tarvuz va xashaki qovoq morfologiyasini, ozuqa birliklarini o'rgatish, kerakli jihozlar va o'quv qo'llanmalar;

Kerakli jihozlar va o'quv qo'llanmalar: Xashaki tarvuz va qovoq mevalarida mulyajlar, rangli rasm va jadvallar. Darslik va o'quv qo'llanmalar (1, 2, 4, 6, 9).

Ishning mazmuni: Poliz ekinlari mamlakatimiz xalq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etuvchi o'simliklardir. Ular qimmatli oziq-ovqat va chorva mollari uchun almashtirib bo'lmaydigan shirali oziqlar manbai hisoblanadi.

Qovun, tarvuz, oshqovoq, kabachki, patison va sukinya kabi vakillari azaldan sharq xalqlari o'rtasida mevalarining betakror mazaligi tufayli sevib iste'mol qilinib kelingan. Qovun tarkibida 8-12 foiz qand, V_1 , V_2 , S_1 , RR vitaminlar borligi ulardan shinni va qovunqoqlar tayyorlashda o'ta qo'l kelgan.

Ammo qovun chorva oziqasi sifatida ekilmaydi. Oshqovoq qimmatli ekinlardan biridir. Uning tarkibida 6-8 foiz uglevodlar, 12 foiz oziq birligi va bir qator foydalai vitaminlar mavjud.

Undan ko'plab milliy va parhyez taomlar, dori-darmonlar tayyorlashda va yog' sanoati xom ashyosi sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston sabzavot-polizchilik va kartoshkachilik ilmgohining Samarqand tayanch manzili (I. M. Asherov, 1985) dagi tadqiqotlar natijasida oziqabop yo'nalishdagi navlar vujudga keldi.

Shuningdek, poliz ekinlari orasida xashaki tarvuz ham alohida o'rinni eg'allaydi. Tarvuzning xo'raki navlari oziq-ovqat va shirinliklar tayyorlashda ahamiyatli sanalsa, xashaki navlari tez hazm bo'lishi, sershira va to'yimliligi bilan ajralib turadi.

Xashaki tarvuz mevalari uzun, yirik, mag'zi esa sarg'ish va odatda qizg'ish urug'li bo'ladi.


Urush yillari xashaki tarvuz navlari N. A. Kuznesova (samQXI) tomonidan keltirilib, lalmi yerlarga ekilgan.

Quruq oziqlarni silos qilishda xashaki tarvuzning qimmatliligi ayniqsa, yuqori bo'ladi. Masalan, makkajo'xori don uchun yig'ishtirib olinganda poyalari o'ta quruq bo'ladiki, ular tarvuz bilan (namligi 70% atrofida) siloslansa to'yimliligi yanada ortadi.

Poliz ekinlarining yana bir muhim shundaki, ular barcha turdagi chorva mollari tomonidan zo'r ishtaha bilan va chiqitsiz yoyiladi. Ular to'g'ridan-to'g'ri dalada molga berilishi yoki siloslanishi ham mumkin.

Poliz ekinlari sug'oriladigan va lalmi yerlarda ham yuqori hosil beraveradi va ko'plab dala ekinlari uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Ayniqsa soyli va sernam yerlarda ularning hosili yanada yuqori bo'ladi.

Sug'oriladigan va g'o'zaning salmog'i yuqori bo'lgan viloyatlarda tarvuz, oshqovoq, kabachki kabi ekinlar mahsus joy talab etmaydi. Ular ariq, zovur yoqalarida va uvatlar bo'ylab ekilishi ham mumkin.



1-rasm. Xashaki qovoqning meva shakllari

Sukinya esa poliz ekinlarining yangi vakili sifatida Samarqand viloyati sharoitida havaskor dehqon va sabzavotkorlar dalasida muvaffaqiyat bilan ekilmoqda.

Lalmikor va suvli yerlarda qovunning o'rtacha hosildorligi gektaridan 200-250 sentner, tarvuz hosili 250-500 sentner, oshqovoqniki esa 300-600 sentnerni tashkil etadi.

Mamlakatimizda poliz ekinlarining maydoni keyingi 4 yil ichida birmuncha kengaydi va hosildorligi o'sdi. 1940 yilda poliz ekinlari oziq-ovqat maqsadi uchun 38, 6 ming, chorva oziqasi uchun 1, 7 ming gektariga ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1987 yilda 63, 5 va 31, 4 ming gektarni tashkil etdi.

Tarvuz (*Citrullus colocunthoides* Pang.) ning ildiz sistemasi yaxshi rivojlangan o'qildiz, yaxshi shoxlangan, yerga 2, 5-3, 0 metrgacha kirib, atrofga ham keng tarqaladi. Poyasi yerga taralib o'sadi, 2-5 metrgacha palak otadi, 5-10 tagacha shoxlaydi. Barglari kuchli darajada patsimon qirqilgan. Poya hamda barglari qattiq tuk bilan qoplangan. Guli yirik, gultojisi och sariq, erkak gullarining gulbandi o'rg'ochi gulnikiga nisbatan ancha uzun, hashoratlar yordamida chetdan changlanadi.

Mevasi ko'p urug'li soxta meva bo'lib, shakliga ko'ra sharsimon yoki tuxumsimon cho'ziq, rangi yashil, och yashil, qoramtir yo'lli bo'ladi. Mevasining eti yashil yoki oqish, tarkibida 1, 2-2, 6% shakar mavjud. Vazni 10-15 kg dan 25-30 kg gacha. Urug'i yassi tuxumsimon, kertikli va qattiq po'stli, rangi har xil. 1000 donasining vazni 120-200g.

Xashaki tarvuzning hozirda Bogarniy-112, Brodskiy-37-42, Disxim navlari mavjud.

Oshqovoq - parrandalar uchun sifatli sershira oziq hisoblanadi. Tarkibida 8-12% quruq modda bo'lib, har 100 kg oshqovoqda 13-15 oziq birligi, 0, 5 kg protein, ko'pgina azotsiz ekstraktiv moddalar va karotin bor. To'yimliliği jihatdan u boshqa sersuv oziqlardan qolishmaydi. Har 100 g oshqovoq 25 kkal energiya beradi. Har 100 g oshqovoqda 1, 30 g protein, 0, 40 g yog', 1, 10 g kletchatka, mineral moddalardan: 19 g kalisiy (Sa), 28 g fosfor (R); aminokislotalardan 70 mg lizin, 20 mg metionin, 20 mg priptofan, 50 mg arginin, 20 mg gistidin, 70 mg leysin, 50 mg izoleysin, 40 mg fenilalanin, 40 mg treonin, 60 mg valin bor.

Oshqovoq parrandaga natural holatda, yaxshi maydalab beriladi. Uning hisobiga ma'lum miqdorida konsentrat oziqlarni tejab qolish mumkin. Rasionga yemning 13-20% miqdorida oshqovoq kiritiladi.

Topshiriq.

1. Poliz ekinlarini yem-xashak ekini siftida ozuqa birliklarini bilish. Rasmini chizish. Morfologik belgi va xususiyatlarini o'rganish, daftarga qayd etish.

2. Poliz ekinlarining keng ekiladigan navlarini tavsifini o'rganish.

3. Xashaki tarvuz yetishtirish texnologik xaritasini tuzish. Texnologik xarita shakli ilovada berilgan.